



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G‘I

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi tarkibini kengaytirish hamda ijtimoiy ahamiyatga
molik loyihani amalga oshirishni tashkillashtirish haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 4-martdagi PF–6181-son Farmoni talablarini, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining 2025-yil 15-maydagi 3-son bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

a) Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining 2025-yil 15-maydagi 3-son bayoni ma‘lumot va ijro uchun;

b) Kengash qarori bilan:

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori
E. Tulyakov;

“Yuksalish” umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha maslahatchisi U. Rajabov;

O‘zbekiston milliy media birlashmasi bosh direktori A. Abutalipovlar Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibiga kiritilganligi;

d) 2025-yilda “Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borish” ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasi (keyingi o‘rinlarda – ijtimoiy loyiha)ni Vazirlik huzuridagi “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirish belgilanganligi;

e) Ijtimoiy loyiha bo‘yicha taklif bergan tanlov ishtirokchilarining taqdim etgan tanlov hujjatlarini Jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan baholash natijalariga ko‘ra “O‘zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi” NNT ko‘p ball to‘plaganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlik huzuridagi “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi (A.Mansurov):

Ijtimoiy loyihani amalga oshirish uchun tanlovning yakuniy baholanish natijalariga asosan, g'olib tashkilot bilan shartnoma rasmiylashtirsin va loyihaning amalga oshirilishini doimiy ravishda monitoring qilib borsin;

joriy yilning dekabr oyida 2025-yil yakuniga ko'ra loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar natijalari yuzasidan Jamoatchilik kengashiga taqdimot tashkil qilsin.

4. Vazirlik markaziy apparatining barcha departament, boshqarma va bo'limlari o'z yo'nalishlari bo'yicha **2025-yil iyul oyida** Vazirlik faoliyatining yarim yillik yakunlari yuzasidan Jamoatchilik kengashiga hisobot berishga tayyorgarlik ko'rsin.

5. Jamoatchilik Kengashi kotibi (N. Abdullayev):

Axborot xizmati (Sh. Axmatov) belgilangan tartibda mazkur buyruqni Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

ushbu buyruqni mutasaddi tashkilotlarga yuborilishini ta'minlasin;

Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (L.Yadgarov) bilan birgalikda Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining Vazirlik faoliyatining yarim yillik yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishini yuqori saviyada tashkil etish choralarini ko'risn.

6. Ushbu buyruqning bajarilishi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov